**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**Samarqand Davlat Veterinariya Meditsinasi, Chorvachilik va Biotexnologiyalar Universiteti**

**Axborot texnologiyalar va tabiiy fanlar kafedrasi**

o’qituvchisi Xamitov Shoxzod Normurodovichning Agrotexnologiya fakulteti O‘rmonchilik va aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich 107-guruh talabalari uchun “Oliy matematika” fanidan “**Aniqmas integrallar va ularning hisoblash usullari**” mavzusidagi

AMALIY MASHG’ULOTI ISHLANMASI

# Mavzu: “Aniqmas integrallar va ularning hisoblash usullari”

**SAMARQAND-2024**

**Tuzuvchi:**

Sh.N.Xamitov-“Axborot texnologiyalari va tabiiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

**Taqrizchilar:**
1.M.T.Mavlyanov- SamDVMCHBU “Axborot texnologiyalari va tabiiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi
2.U.Sh.Ubaydullayev- TDIUSF “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasi mudiri, PhD, Dotsent

## 6-mavzu. Aniqmas integrallar va ularning hisoblash usullari

**Reja:**

1. Aniqmas integral.

2. Integrallash usullari: bevosita, o‘zgaruvchilarni almashtirish va bo‘laklab integrallash.

Tayanch iboralar:boshlang‘ich funksiya,aniqmas integral,aniq integral, bevosita, o‘zgaruvchilarni almashtirish va bo‘laklab integrallash.

## Mavzu: Aniqmas integrallar va ularning hisoblash usullari

### Amaliy mashg‘ulot texnologiyasi

| | |
|---|---|
| **Vaqti – 80 minut** | O‘quvchilar soni: 23 nafar |
| **O‘quv mashg‘ulotining shakli** | Amaliy (Misol, masalalar yechishga o‘rgatish) |
| **Mashg‘ulotning rejasi** | 1. O‘tgan mavzuga doir misollar yechish<br>2.Integrallash usullari: bevosita, o‘zgaruvchilarni almashtirish va bo‘laklab integrallash.<br>3. Irratsional ifodalar va trigonometrik funksiyalarni integrallash.<br>4. Nyuton- Leybnis formulasi. Aniq integrallarni hisoblash usullari.<br>5. Misol va masalalar yechish |
| **O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: a) <u>ta’limiy</u>**- Funksiyadan integral olishni bilish. Integrallar jadvalidan foydalanib misollarga qo‘llay olish.<br>**b) <u>tarbiyaviy</u>** - o‘quvchilarning kasbiy bilimlari – *ta’lim* sohasiga tegishli bilimlardan foydalanib, o‘rganilayotgan mavzuga qiziqish o‘yg‘otish, matematikaning hayotdagi, kasblardagi o‘rnini ko‘rsatish orqali ularni mehnatsevarlikka, diqqatni jamlashga, fikrlashga o‘rgatish, matematik tafakkurni shaklantirish.<br>**v) <u>rivojlantiruvchi</u>** - taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish usullarini qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish; | |
| **Tayanch so‘z va iboralar** | boshlang‘ich funksiya,aniqmas integral,aniq integral, bevosita, o‘zgaruvchilarni almashtirish va bo‘laklab integrallash. |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>- Boshlang‘ich funksiya, aniqmas integral va aniq integral. haqida ma’lumot berish;<br>- Aniqmas integral jadvalidan foydalanishni bilish;<br>- Nyuton-Leybnis formulasidan foydalana olish;<br>- Formulalarni misollar ishlashda qo‘llashni bilish; | **O‘quv faoliyatining natijalari:**<br>**O‘quvchi**:<br>- Boshlang‘ich funksiya, aniqmas integral va aniq integrallar haqida gapirib beradi;<br>- Aniqmas integral jadvalidagi formulalarini qo‘llay oladi.<br>-Formulalardan misollar ishlashda foydalana oladi; |
| O‘qitish uslubi va texnikasi | Kichik guruhlarda ishlash, modelli o‘qitish usuli, klaster, test. |
| O‘qitish vositalari | Ma’ruzalar matni, rangli plakatlar, mavzu bo‘yicha tarqatma materiallar. |

| | |
|---|---|
| O‘qitish shakllari | *Mustaqil ish, guruhlarda ishlash, jamoada ishlash. |
| O‘qitish sharoitlari | Guruhdagi ishlarni tashkillashtirish uchun muvofiqlashgan texnik uskunalar bilan jihozlangan auditoriya. |
| O‘quvchilarning berilgan o‘quv mashg‘ulotlari uchun kerakli bilim va ta’lim mahoratlari ro‘yxati. | 1.Integrallash usullari: bevosita, o‘zgaruvchilarni almashtirish va bo‘laklab integrallash.<br>2. Irratsional ifodalar va trigonometrik funksiyalarni integrallash.<br>3. Nyuton- Leybnis formulasi. Aniq integrallarni hisoblash usullari. |

## Amaliy mashg‘ulotning texnologik xaritasi

| **Bosqichlar vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O‘qituvchi** | **O‘quvchi** |
| **1-bosqich**<br>**Kirish**<br>**(10 min)** | 1.1.O‘tilgan mavzular bo‘yicha tarqatma materiallar tarqatiladi.<br>1.2. O‘quv mashg‘ulotining mavzu va rejasini ma’lum qiladi. Erishadigan natijalar bilan tanishtiradi. Mazkur mashg‘ulot muammoli tarzda o‘tishini e’lon qiladi. | 1.1. Eshitadilar va yozib oladilar. |
| **2-bosqich**<br>**Asosiy**<br>**(55 min)** | 2.1. O‘quvchilar e’tiborini rejadagi savollar va ulardagi tushunchalarga qaratadilar. Kichik guruhlarga bo‘linadi.<br>2.2. Muammoli savollarni o‘rtaga tashlaydi va ularni birgalikda o‘qishga chorlaydi<br>2.3. Mavzuni mustahkamlash uchun klaster tuzushadi.<br>2.4. Mavzuga doir misollar ishlashadi.<br>1.Integrallash usullari: bevosita, o‘zgaruvchilarni almashtirish va bo‘laklab integrallash.<br>2. Irratsional ifodalar va trigonometrik funksiyalarni integrallash.<br>3. Nyuton- Leybnis formulasi. Aniq integrallarni hisoblash usullari.<br>2.5.Mustaqil ishlash uchun misollar beriladi. | 2.1. O‘quvchilar javob beradilar, daftarlariga chizadilar, jadvalnning 1 va 2 ustunlarini to‘ldiradilar.<br>2.2. Muammoga e’tiborni qaratadilar va yozib oladilar.<br>2.3. Yozib oladilar va o‘z bilimlari bilan solishtiradilar.<br>2.4. Muammo yuzasidan o‘z yechimlarini taklif qiladilar. Munozara qiladilar. Javob beradilar.<br>2.5. Optimal yechimlar yuzasidan takliflar beradilar. |

| | | |
|---|---|---|
| **3-bosqich**<br>**Yakuniy**<br>**(15 min)** | 3.1. Mavzuga xulosa qiladi.<br>3.2. Rejadagi natijaga erishishda faol ishtirokchilarni rag‘batlantiradi.<br>3.3. Mustaqil ish uchun vazifa beradi: «Integral hisob asoslari» mavzusini o‘rganish.<br>3.4. Uyda vazifa uchun misollar beriladi. | 3.1. Eshitadilar. Yozib oladilar.<br>3.2.Yozib oladilar va uyda ishlaydilar. |

## ANIQMAS INTEGRAL

**Ta’rif.** Agar ***F(x)*** funksiyaning hosilasi ***f(x)*** funksiyaga teng, ya’ni ***F′(x)=f(x)*** bo’lsa, u holda ***F(x)*** funksiyaga ***f(x)*** funksiyaning boshlang‘ich funksiyasi deyiladi.

Ta’rif. *f(x)* funksiyaning barcha boshlang‘ich funksiyalaridan iborat {*F(x)*+*c*} to‘plamni *f(x)* funksiyaning ANIQMAS INTEGRALI deyiladi va

$$\int f(x)dx = F(x) + c$$

ko‘rinishda yoziladi. *c* – o‘zgarmas son

## INTEGRALLASH QOIDALARI

$$I. \quad \int f(x)dx = F(x) + c$$

$$II. \int kf(x)dx = k\int f(x)dx + c. \quad k - const., \quad k \neq 0$$

$$III. \quad \int [f(x) \pm g(x)]dx = \int f(x)dx \pm \int g(x)dx + c$$

$$IV. \quad \int dF(x) = F(x) + c., \quad d[\int f(x)dx] = f(x)dx.$$

## ASOSIY INTEGRALLAR JADVALI

1. $\int dx = x + c;$
2. $\int x^m dx = \frac{x^{m+1}}{m+1} + c(m \neq -1);$
3. $\int a^x dx = \frac{a^x}{\ln a} + c \quad (a > 0; a \neq 1);$
4. $\int e^x dx = e^x + c;$
5. $\int \frac{dx}{x} = \ln|x| + c;$
6. $\int \sin x dx = -\cos x + c;$
7. $\int \cos dx = \sin x + c;$
8. $\int \frac{dx}{\sin^2 x} = -ctgx + c;$
9. $\int \frac{dx}{\cos^2 x} = tgx + c;$
10. $\int tgxdx = -\ln|\cos x| + c.$
11. $\int ctgxdx = \ln|\sin x| + c.$
12. $\int \frac{dx}{\sqrt{1-x^2}} = \arcsin x + c.$
13. $\int \frac{dx}{1+x^2} = arctgx + c;$
14. $\int f(ax+b)dx = \frac{1}{a}F(ax+b) + c.$

Misol 1. $\int (x+1)^2 dx$ ni integrallang.

Yechilishi.

$$\int (x+1)^2 dx = \int (x^2+2x+1)dx = \int x^2 dx + 2\int x dx + \int dx = \frac{x^{2+1}}{2+1} + 2\cdot\frac{x^{1+1}}{1+1} + x + c =$$

$$= \frac{x^3}{3} + x^2 + x + c$$

Misol 2. $\int (\cos 3x + 2e^x + \frac{3}{\sin^2 x})dx$ ni integrallang.

Yechilishi.

$$\int (\cos 3x + 2e^x + \frac{3}{\sin^2 x})dx = \int \cos 3x \cdot dx + 2\int e^x dx + 3\int \frac{dx}{\sin^2 x} = \frac{1}{3}\sin 3x + 2e^x - 3ctgx + c.$$

Misol 3. $\int (x^2+5)^3 dx$ ni integrallang.

Yechilishi.

$$\int (x^2+5)^3 dx = \int [(x^2)^3 + 3(x^2)^2 * 5 + 3x^2 * 5^2 + 5^3]dx = \int (x^6 + 15x^4 + 75x^2 + 125)dx =$$

$$= \int x^6 dx + \int 15x^4 dx + \int 75x^2 dx + \int 125 dx = \int x^6 dx + 15\int x^4 dx + 75\int x^2 dx + 125\int dx =$$

$$= \frac{x^{6+1}}{6+1} + 15\frac{x^{4+1}}{4+1} + 75\frac{x^{2+1}}{2+1} + 125x + c = \frac{x^7}{7} + 3x^5 + 25x^3 + 125x + c.$$

Misol 4. $\int \cos 4x dx$ ni integrallang.

Yechilishi. $\int \cos 4x dx = \frac{1}{4}\sin 4x + c.$

## ANIQMAS INTEGRALDA O‘ZGARUVCHINI ALMASHTIRISH

$$\int f(x)dx = \int f(\varphi(t))\,\varphi'(t)\cdot dt = F(\varphi(t)) + c$$

Misol 5. $\int (2+3x)^5 dx$ ni integrallang.

Yechilishi.

$$\int (2+3x)^5 dx = \left| \begin{array}{l} 2+3x = t \Rightarrow 3x = t-2 \Rightarrow \\ \Rightarrow x = \frac{t-2}{3} \Rightarrow x = \frac{1}{3}\cdot t - \frac{2}{3} \Rightarrow \\ \Rightarrow dx = \frac{1}{3}dt \end{array} \right| = \int t^5 \cdot \frac{1}{3}\cdot dt = \frac{1}{3}\int t^5 \quad dt = \frac{1}{3}\cdot\frac{t^{5+1}}{5+1} + c = \frac{t^6}{18} + c = \frac{(2+3x)^6}{18} + c.$$

Misol 6. $\int (x-3)^5 dx$ **ni integrallang.**

Yechilishi.

$$\int (x-3)^5 dx = \left| \begin{array}{l} t = x-3; \\ x = t+3; \\ dx = dt \end{array} \right| = \int t^5 dt = \frac{t^{5+1}}{5+1} + c = \frac{(x-3)^6}{6} + c.$$

Misol 7. $\int \cos(5x-3)dx$ **ni integrallang.**

Yechilishi.

$$\int \cos(5x-3)dx = \left| \begin{array}{l} t = 5x-3 \\ 5x = t+3; \\ x = \frac{1}{5}t + \frac{3}{5}; \\ dx = \frac{1}{5}dt. \end{array} \right| = \int \cos t * \frac{1}{5}dt = \frac{1}{5}\int \cos tdt = \frac{1}{5}\sin t + c = \frac{1}{5}\sin(x-3) + c.$$

## ANIQMAS INTEGRALLARNI BO‘LAKLAB INTEGRALLASH

*u=u(x)* va *v=v(x)* funksiyalarning uzluksiz *u/(x)* va *v/(x)* hosilalari mavjud bo’lsin.
U holda ko’paytmadan hosila olish qoidasiga ko’ra,

$$d(u\cdot v) = udv + vdu;$$

$$\int u\cdot dv = \int d(u\cdot v) - \int v\cdot du;$$

$$\int u\cdot dv = u\cdot v - \int vdu;$$

Misol 8. $\int xe^x dx$ **ni integrallang.**

Yechilishi.

$$\int x\ e^x dx = \left| \begin{array}{l} u = x \Rightarrow dx = du; \\ dv = e^x dx; \int dv = \int e^x dx; \\ v = e^x. \end{array} \right| = x\cdot e^x - \int e^x dx = x\cdot e^x - e^x + c.$$

Misol 9. $\int \ln xdx$ **ni integrallang.**

Yechilishi.

$$\int ln\,xdx = \left| \begin{array}{l} u = ln\,x;\ du = \frac{1}{x}dx; \\ dv = dx; \quad \int dv = \int dx; \\ v = x. \end{array} \right| = x\cdot ln\,x - \int x\cdot\frac{1}{x}\cdot dx = x\,ln\,x - x + c.$$

Misol 10. $\int x\cos xdx$ **ni integrallang.**

Yechilishi.

$$\int x\cos xdx = \left| \begin{array}{l} u = x \Leftrightarrow du = dx; \\ dv = \cos xdx; \\ \int dv = \int \cos xdx; \\ v = \sin x \end{array} \right| = x * \sin x - \int \sin xdx = x\sin x - (-\cos x) + c =$$

$$= x\sin x + \cos x + c.$$

## MUSTAQIL BAJARISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

Quyidagi integrallarni toping:

**1.** $\int\left(x^3+2x+\frac{4}{x}\right)dx$; Javobi: $\frac{x^4}{4}+x^2+4\ln x+c$.

**2.** $\int(1-\frac{1}{\cos^2 3x})dx$; Javobi: $x-\frac{1}{3}tg3x+c$.

**3.** $\int\frac{x^2+2x+2}{\sqrt{x^3}}dx$; Javobi: $\frac{2}{3}\sqrt{x^3}+4\sqrt{x}-\frac{4}{\sqrt{x}}+c$.

**4.** $\int 2\sin 3x dx$; Javobi: $-\frac{2}{3}\cos 3x+c$.

**5.** $\int(\frac{1}{3}x^2-6x+\frac{3}{4})dx$; Javobi: $\frac{x^3}{9}-3x^2+\frac{3}{4}x+c$

**6.** $\int\sqrt[3]{x^2}dx$; Javobi: $\frac{3}{5}\sqrt[3]{x^5}+c.$

**7.** $\int 3\cos 3x dx$. Javobi: $\sin 3x+c.$

Aniqmas integralda o‘zgaruvchini almashtirishga doir misollar:

**8.** $\int\sqrt{2x}dx;$ Javobi: $\frac{1}{3}\sqrt{(2x)^3}+c.$

**9.** $\int\sqrt{3x+5}dx;$ Javobi: $\frac{2}{9}\sqrt{(3x+5)^3}+c.$

**10.** $\int\sin(5x-3)dx;$ Javobi: $-\frac{1}{5}\cos(5x-3)+c.$

**11.** $\int\cos(16x+5)dx;$ Javobi: $\frac{1}{16}\sin(16x+5)+c.$

**12.** $\int\frac{xdx}{x^2+1};$ Javobi: $\frac{1}{2}\ln(x^2+1)+c.$

**13.** $\int\ln(4x-6)dx;$ Javobi: $\frac{4}{4x-6}+c.$

Aniqmas integralni bo‘laklab integrallashga doir misollar:

**14.** $\int x\sin x dx$; Javobi: $-x\cos x-\sin x+c.$

**15.** $\int x\cos 2x dx;$ Javobi: $\frac{1}{2}x\sin 2x+\cos 2x+c.$

**16.** $\int(2x+1)\sin 3x dx;$ Javobi: $(2x+1)(-\frac{1}{3}\cos 3x)+\frac{2}{9}\sin 3x+c.$

**17**. $\int xarctgxdx;$ Javobi: $\frac{x^2}{2}arc\,tgx - \frac{x}{2} + \frac{1}{2}arctgx + c.$

## IRRATSIONAL IFODALAR VA TRIGONOMETRIK FUNKSIYALARNI INTEGRALLASH.

### Ba'zi irratsional funktsiyalarni integrallash

1. $R(x,\sqrt[m]{\frac{ax+b}{cx+d}}$ *ko'rinishdagi ifodalarni integrallash.*

2. $x^m\left(a+bx^n\right)^P$ *ko'rinishdagi ifodalarni integrallash.*

*3.* $R(x,\sqrt{ax^2+bx+c}$ *ko'rinishdagi ifodalarni integrallash.*

$R\left(x,\sqrt[m]{\frac{ax+b}{cx+d}}\right)dx$ *ko'rinishdagi ifodalarni integrallash.*

Bunday ifodalarni integrallashda integral ostidagi ifodani ratsinonal ifoda ko'rinishiga keltirish lozim. Ratsional ifoda shakliga keltiradigan almashtirishni aniqlash kerak.

Bunda $t=\varphi(x)=\sqrt[m]{\frac{ax+b}{cx+d}}$ (1)

ko'rinishdagi almashtirish olinadi.

Misol sifatida quyidagi:

$$\int R\left(x,\sqrt[m]{\frac{ax+b}{cx+d}}\right)dx \qquad (2)$$

ifodani qaraylik. Bunda *R* - ikkita argumentning ratsional funksiyasi, *m*-natural son, *a*, *b*, *c* va *d* lar o'zgarmas sonlardan iborat. $t=f\left(x\right)=\sqrt[m]{\frac{ax+b}{cx+d}}$ almashtirish olamiz, bunda

$$t^m=\frac{ax+b}{cx+d}, \quad x=g\left(t\right)=\frac{dt^m-b}{a-ct^m}$$

bo'lsin. U holda, (2) integral

$$\int R\left(\varphi(t),\varphi'(t)\right)dt \qquad (3)$$

ko‘rinishga keladi. $R, \varphi, \varphi'$ lar ratsional funksiyalardir. (3) integralni oldingi mavzudagi qoida asosida hisoblab, $t = f(x)$ ni qo‘yib, so‘ngra eski o‘zgaruvchiga qaytiladi.

***Misol.*** $\int \frac{dx}{\sqrt[3]{(x-1)(x+1)^2}} = \int \sqrt[3]{\frac{x+1}{x-1}} \cdot \frac{1}{x+1} dx$

(1) almashtirishni amalga oshiramiz:

$$t = \sqrt[3]{\frac{x+1}{x-1}}, \quad x = \frac{t^3+1}{t^3-1}, \; dx = -\frac{6t^2}{\left(t^3-1\right)^2}dt.$$

U holda,

$$\int \sqrt[3]{\frac{x+1}{x-1}} \cdot \frac{1}{x+1}dx = \int \frac{-3}{t^3-1}dt = \int\left(-\frac{1}{t-1} + \frac{t+2}{t_2+t+1}\right)dt = \int -\frac{1}{t-1}dt + \int \frac{t+2}{t^2+t+1}dt =$$

$$= \frac{1}{2}\ln\frac{t^2+t+1}{(t-1)^2} + \sqrt{3}arctg\frac{2t+1}{\sqrt{3}} + c.$$

Bundan, eski o‘zgaruvchiga qaytiladi.

## $x^m\left(a+bx^n\right)^p$ ko‘rinishdagi ifodani integrallash

Agar $p$ butun son bo‘lsa, ifoda oldingi o‘rganilgan guruhga kiradi. Qaralayotgan ifodani integrallash uchun

$$z = x^n \qquad (4)$$

almashtirish olamiz va ifoda shaklini o‘zgartiramiz:

$$x^m\left(a+bx^n\right)^p dx = \frac{1}{n}(a+bz)^p \cdot z^{\frac{m+1}{n}-1}dz.$$

Bundan $\frac{m+1}{n} - 1 = q$ desak,

$$\int x^m\left(a+bx^n\right)^p dx = \frac{1}{n}\int (a+bz)^p z^q dz. \qquad (5)$$

Agar *q* butun son bo‘lsa, oldin o‘rganilgan misol turiga kelinadi.

(2) ning o‘ng tomonidagi integralni quyidagi ko‘rinishda yozamiz:

$$\int\left(\frac{a+bz}{z}\right)z^{p+q}dz.$$

Bundagi $p+q$ butun son bo‘lganda yana o‘rganilgan misolga kelamiz.

***1-misol.*** Integralni hisoblang:

$$\int\frac{x^3}{\sqrt{x^3+2}}dx.$$

***Yechilishi*:** $x=t^6$ almashtirish olamiz. U holda, $dx=6tdt$ bo‘ladi. Integrallashni amalga oshiramiz:

$$\int\frac{x^3}{\sqrt{x^3+2}}dx=\int\frac{dx}{\left(1+\sqrt[3]{x}\right)\sqrt{x}}=\int\frac{6t^5dt}{\left(1+t^2\right)t^3}=6\int\frac{t^2}{1+t^2}dt=6\int\frac{t^2+1-1}{t^2+1}dt=$$

$$=6\int\left(1-\frac{1}{1+t^2}\right)dt=6\int dt-6\int\frac{dt}{1+t^2}=6\left(t-arctgt\right)+c=6\left(\sqrt[6]{x}-arctg\sqrt[6]{x}\right)+c.$$

***2-misol.*** Quyidagi integralni hisoblang:

$$\int x\sqrt{a-x}dx.$$

***Yechilishi*:** $a-x=t^2$ belgilash kiritamiz. Bundan, $x=a-t^2$, $dx=-2tdt,$ $\sqrt{a-x}=t.$ U holda,

$$\int x\sqrt{a-x}dx=-2\int\left(a-t^2\right)t^2dt=-2a\int t^2dt+2\int t^4dt=-2a\cdot\frac{t^3}{3}+2\cdot\frac{t^5}{5}+c=$$

$$=-\frac{2a}{3}\left(\sqrt{a-x}\right)^3+\frac{2}{5}\left(\sqrt{a-x}\right)^5+c.$$

## $R\left(x,\sqrt{ax^2+bx+c}\right)$ ko‘rinishidagi ifodalarni integrallash. Eyler almashtirishlari

Har doim ham kvadrat uchhad teng ildizlarga ega bo‘lmaydi. Shuning uchun ulardan olingan ildizning ratsional ifoda bilan almashtirishi mumkin bo‘lmaydi. Bunday hollarda Eylerning uchta almashtirishi yordamida integral ostidagi ifoda ratsional ifodaga keladi.

$a>0$ bo’lsa, *birinchi almashtirish*

$$\sqrt{ax^2+bx+c}=t-\sqrt{a}x. \qquad (6)$$

qo‘llaniladi. Uning ikkala tomonini kvadratga ko‘taramiz:

$$bx+c=t^2-2\sqrt{a}tx.$$

U holda,

$$x=\frac{t^2-c}{2\sqrt{a}t+b},\ \sqrt{ax^2+bx+c}=\frac{\sqrt{a}t^2+bx+c\sqrt{a}}{2\sqrt{a}t+b},\ dx=2\cdot\frac{\sqrt{a}t^2+bt+c\sqrt{a}}{\left(2\sqrt{a}t+b\right)^2}dt.$$

Topilgan ifodalarni

$$\int R\left(x,\sqrt{ax^2+bx+c}\right) \qquad (7)$$

integralga qo‘yilsa, u holda, qaralayotgan misol $t$ ning ratsional funksiyasini integrallashga keltiriladi. Keyin eski $x$ o‘zgaruvchiga qaytiladi,

$$t=\sqrt{ax^2+bx+c}+\sqrt{a}x.$$

$c>0$ bo‘lsa, *ikkinchi almashtirish*

$$\sqrt{ax^2+bx+c}=xt+\sqrt{c} \qquad (8)$$

qo‘llaniladi. Bundan quyidagiga kelamiz:

$$ax+b=xt^2+2\sqrt{c}t.$$

Bundan, $x=\dfrac{2\sqrt{c}t-b}{a-t^2},\ \sqrt{ax^2+bx+c}=\dfrac{\sqrt{c}t^2-bt+a\sqrt{c}}{a-t^2},\ dx=2\cdot\dfrac{\sqrt{c}t^2-bt+\sqrt{c}a}{\left(a-t^2\right)^2}dt.$

Buni (7) ga qo‘yib, integral ostidagi ifodani ratsionallashtiramiz, uni integrallab, eski o‘zgaruvchiga qaytamiz:

$$t=\frac{\sqrt{ax^2+bx+c}-\sqrt{c}}{x}.$$

Agar $ax^2+bx+c$ kvadrat uchhad $\alpha$ va $\beta$ ildizlarga ega bo‘lsa, *uchinchi almashtirish* qo‘llaniladi. Bunday holda uchhad chiziqli ko‘paytiruvchilarga ajraladi:

$$ax^2+bx+c=a\left(x-\alpha\right)\left(x-\beta\right).$$

Agar $\sqrt{ax^2+bx+c}=t\left(x-\alpha\right)$ deb qaralsa,

$$a\left(x-\beta\right)=t^2\left(x-\alpha\right)$$

hosil bo‘ladi. Demak,

$$x=\frac{-a\beta+\alpha t^2}{t^2-a},\ \sqrt{ax^2+bx+c}=\frac{a\left(\alpha-\beta\right)t}{t^2-a},\ dx=\frac{2a\left(\beta-\alpha\right)t}{\left(t^2-a\right)^2}dt.$$

Hosil bo‘lgan ifodani integrallash qiyinchilik tug‘dirmaydi.

***1-misol.*** $\int\frac{dx}{\sqrt{a^2-x^2}}$ integralni Eylerning uchinchi almashtirishini qo‘llab, hisoblang.

***Yechilishi*:** Almashtirish olamiz:

$\sqrt{a^2-x^2}=t\left(a-x\right),\ x=a\cdot\frac{t^2-1}{t^2+1},\ dx=\frac{4at}{\left(t^2+1\right)^2}dt,\ \sqrt{a^2-x^2}=\frac{2at}{t^2+1}.$ U holda,

$$\int\frac{dx}{\sqrt{a^2-x^2}}=2\int\frac{dt}{t^2+1}=2arctgt+c=2arctg\sqrt{\frac{a+x}{a-x}}+c.$$

Berilgan integralni $\sqrt{a^2-x^2}=xt-a$ almashtirish, ya’ni ikkinchi almashtirish yordamida ham hisoblash mumkin:

$$\int\frac{dx}{\sqrt{a^2-x^2}}=-2\int\frac{dt}{t^2+1}=-2arctgt+c=-2arctg\frac{a+\sqrt{a^2-x^2}}{x}+c.$$

***2-misol.*** $\int\frac{dx}{x+\sqrt{x^2-x+1}}$ integralni Eyler almashtirishlari yordamida hisoblang.

***Yechilishi*:** Eylerning birinchi almashtirishini qo‘llaylik:

$$\sqrt{x^2-x+1}=t-x_3\quad x=\frac{t^2-1}{2t-1},\ dx=2\frac{t^2-t+1}{\left(2t-1\right)^2}dt.$$

U holda,

$$\int\frac{dx}{x+\sqrt{x^2-x+1}}=\int\frac{2t^2-2t+2}{t\left(2t-1\right)^2}dt=\int\left(\frac{2}{t}-\frac{3}{2t-1}+\frac{3}{\left(2t-1\right)^2}\right)dt=$$

$$=-\frac{3}{2}\cdot\frac{1}{2t-1}+2\ln\left|t\right|-\frac{3}{2}\left|2t-1\right|+c.$$

Berilgan ifodada quyidagi almashtirishni

$$t = x + \sqrt{x^2 - x + 1}$$

amalga oshirsak, u holda

$$\int \frac{dx}{x + \sqrt{x^2 - x + 1}} = -\frac{3}{2} \cdot \frac{1}{2x + 2\sqrt{x^2 - x + 1}} - \frac{3}{2}\ln\left|2x + 2\sqrt{x^2 - x + 1} - 1\right| +$$
$$+\sqrt{x^2 - x + 1} + c$$

hosil bo‘ladi. Endi, Eylerning uchinchi almashtirishini yuqoridagi integralni hisoblashda qo‘llaymiz:

$$\sqrt{x^2 - x + 1} = tx - 1,\ \ x = \frac{2t - 1}{t^2 - 1} - dx = -2 \cdot \frac{t^2 - t + 1}{\left(t^2 - 1\right)^2} dt,\ \ \sqrt{x^2 - x + 1} = \frac{t^2 - t + 1}{t^2 - 1},$$

$$x + \sqrt{x^2 - x + 1} = \frac{t}{t - 1}.$$

Integralni hisoblaymiz:

$$\int \frac{dx}{x + \sqrt{x^2 - x + 1}} = \int \frac{-2t^2 + 2t - 2}{t(t-1)(t+1)^2} dt = \int \left(\frac{3}{t} - \frac{1}{2} \cdot \frac{1}{t-1} - \frac{3}{2} \cdot \frac{1}{t+1} - \frac{3}{(t+1)^2}\right) dt =$$
$$= \frac{3}{t+1} + 2\ln|t| - \frac{1}{2}\ln|t-1| - \frac{3}{2}\ln|t+1| + c.$$

Hosil bo‘lgan natijaga $t = \dfrac{\sqrt{x^2 - x + 1} + 1}{x}$ ni qo‘yib, soddalashtiramiz:

$$\int \frac{dx}{x + \sqrt{x^2 - x + 1}} = \frac{3x}{\sqrt{x^2 - x + 1} + x + 1} + 2\ln\left|\sqrt{x^2 - x + 1} + 1\right| - \frac{1}{2}\ln\left|\sqrt{x^2 - x + 1} - x + 1\right| -$$
$$-\frac{3}{2}\ln\left|\sqrt{x^2 - x + 1} + x + 1\right| + c^1.$$

$c^1 = c + \dfrac{3}{2}$ deb olinsa, natija oldingi almashtirishlardagiga aynan teng bo‘ladi.

## MUSTAQIL BAJARISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

Quyidagi integrallarni hisoblang:

1. $\int \frac{dx}{1+\sqrt{x}}$.

2. $\int \frac{dx}{\left(1+\sqrt[3]{x}\right)\sqrt{x}}$.

3. $\int \frac{1+\sqrt[6]{x}}{\sqrt[3]{x}+\sqrt{x}}dx$.

4. $\int \frac{1}{x}\sqrt{\frac{x-2}{x}}dx$.

5. $\int \frac{dx}{\left(1+\sqrt[4]{x}\right)^2\cdot\sqrt{x}}$.

6. $\int \frac{dx}{\sqrt{x}\left(1+\sqrt[4]{x}\right)^3}$.

7. $\int \frac{dx}{\sqrt{2x+1}+1}$.

8. $\int \frac{dx}{(1-x)\sqrt{1-x^2}}$.

9. $\int (x-2)\sqrt{\frac{1+x}{1-x}}dx$.

10. $\int \frac{dx}{x\left(1+2\sqrt{x}+\sqrt[3]{x}\right)}$.

11. $\int \frac{1}{x^3\sqrt{x^2+1}}dx$.

12. $\int \frac{x^3}{\sqrt{1+2x-x^2}}dx$.

13. $\int \frac{x^2}{\sqrt{9-x^2}}dx$.

14. $\int \frac{x^3}{\sqrt{4-x^2}}dx$.

15. $\int \frac{dx}{x\sqrt{a^2+x^2}}$.

## TRIGONOMETRIK FUNKSIYALARNI INTEGRALLASH

$\int sin^n x\, cos^m xdx$ ko‘rinishdagi integrallar quyidagicha topiladi:

a) Agar *n>0* toq bo’lsa, $cos\, x = t$, $sin\, xdx = -dt$ o‘rniga qo‘yish integralni ratsionallashtiradi.

**Misol 17.** $\int \sin^3 x\cdot\cos^2 xdx$ integralni toping.

**Yechilishi:** $\sin^3 x$ da bitta $\sin x$ ko‘paytuvchini ajratamiz va uni differensial ostiga kiritamiz:

$$\int sin^3 x\cdot cos^2 xdx = \int sin^2 x\cdot cos^2 x\, sin\, xdx = -\int sin^2 x\, cos^2 xd(cos\, x) = -\int (1-cos^2 x)cos^2 xd(cos\, x) =$$

$$= -\int (cos^2 x - cos^4 x)d(cos\, x) = C - \frac{1}{3}cos^3 x + \frac{1}{5}cos^5 x.$$

b) Agar *m>0* toq bo‘lsa, u holda $\sin x = t$, $\cos xdx = dt$ o’rniga qo‘yish integralni ratsionallashtiradi.

**Misol 18.** $\int \frac{\cos^3 xdx}{\sqrt[3]{\sin^4 x}}$ integralni toping.

**Yechilishi:**

$$\int\frac{\cos^3 xdx}{\sin^{\frac{4}{3}} x}=\int\frac{\cos^2 x\cos xdx}{\sin^{\frac{3}{4}} x}=\int\frac{(1-\sin^2 x)d(\sin x)}{\sin^{\frac{4}{3}} x}=\int(\sin^{-\frac{4}{3}} x-\sin^{\frac{2}{3}} x)d(\sin x)=$$

$$=-3\sin^{-\frac{1}{3}} x-\frac{3}{5}\sin^{\frac{5}{3}} x+C=C-\frac{3}{\sqrt[3]{\sin x}}-\frac{3}{5}\sqrt[3]{\sin^5 x}.$$

**Misol 19.** $\int\sin^4 xdx$ integralni toping.

**Yechilishi:**

$$\int\sin^4 xdx=\int(\sin^2 x)^2dx=\int\left(\frac{1-\cos 2x}{2}\right)^2dx=\frac{1}{4}(1-2\cos 2x+\cos^2 2x)dx=$$

$$=\frac{1}{4}(x-\sin 2x+\int\cos^2 2xdx)=\frac{1}{4}(x-\sin 2x+\frac{1}{2}\int(1+\cos 4x)dx)=$$

$$=\frac{1}{4}(x-\sin 2x+\frac{1}{2}x+\frac{1}{8}\sin 4x)+C=\frac{1}{4}\left(\frac{3x}{2}-\sin 2x+\frac{1}{8}\sin 4x\right)+C.$$

**Misol 20.** $\int\cos x*\cos 2x*\cos 4xdx$ integralni toping.

**Yechilishi.** Ko‘paytmadan yig‘indiga o‘tish formulasi ikki marta qo‘llaniladi:

$$\int\cos x*\cos 2x*\cos 4xdx=\frac{1}{2}\int[\cos 3x+\cos(-x)]\cos 4xdx=\frac{1}{2}\int\cos 3x\cos 4xdx+\frac{1}{2}\int\cos x\cos 4xdx=$$

$$=\frac{1}{4}\int[\cos 7x+\cos(-x)]dx+\frac{1}{4}\int[\cos 5x+\cos(-3x)]dx=\frac{1}{4}(\frac{1}{7}\sin 7x+\frac{1}{5}\sin 5x+\frac{1}{3}\sin 3x+\sin x)+c.$$

## MUSTAQIL BAJARISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

### Quyidagi integrallarni toping:

1. $\int\sin^4 xdx.$
2. $\int\cos^3 xdx.$
3. $\int\frac{dx}{\sin 2x}.$
4. $\int\frac{dx}{\cos 2x}.$
5. $\int\frac{dx}{\sin x\cdot\cos^4 x}.$

12. $\int\frac{tgx}{tgx-3}dx.$
13. $\int\frac{dx}{\sin^4 x+\cos^4 x}.$
14. $\int\frac{\sin^2 x}{\sin x+2\cos x}dx.$
15. $\int\frac{1}{1+\sin x}dx.$
16. $\int\cos^4 xdx.$

6. $\int tg^3 x dx.$

7. $\int \sin 2x \cdot \cos 4x dx.$

8. $\int \cos x \cdot \cos 4x dx.$

9. $\int \frac{\cos^2 x}{\sin 4x} dx.$

10. $\int \frac{\sin x + \sin^3 x}{\cos 2x} dx.$

11. $\int \frac{\sin 2x}{3 + 4\sin^2 x} dx.$

17. $\int \sin^3 x \cos^3 x dx.$

18. $\int \sin 3x \cdot \sin 4x dx.$

19. $\int \sqrt{4 - x^2} dx.$

20. $\int \frac{x^2 dx}{\sqrt{9 - x^2}}.$

21. $\int x\sqrt{a - x} dx.$

## INTEGRALLASH FORMULALARI

**c – o‘zgarmas son**

**Integrallash qoidalari:**

$I. \int f(x)dx = F(x) + c$

$II. \int kf(x)dx = k\int f(x)dx + c. \ k - const., k \neq 0$

$III. \int [f(x) \pm g(x)]dx = \int f(x)dx \pm \int g(x)dx + c$

$IV. \int dF(x) = F(x) + c., \ d[\int f(x)dx] = f(x)dx.$

## INTEGRALLAR JADVALI VA BOSHQA MUHIM FORMULALAR:

1. $\int dx = x + c.$

2. $\int x^n dx = \frac{x^{n+1}}{n+1} + c, \quad n \neq -1.$

3. $\int \frac{dx}{x} = ln\,|\,x\,| + c.$

4. $\int a^x dx = \frac{a^x}{ln\,a} + c.$

5. $\int e^x dx = e^x + c.$

6. $\int sin\,xdx = -\,cos\,x + c.$

7. $\int cos\,xdx = sin\,x + c.$

8. $\int \frac{dx}{cos^2 x} = tgx + c.$

9. $\int \frac{dx}{sin^2 x} = -ctgx + c.$

10. $\int \frac{dx}{\sqrt{1-x^2}} = arcsin\,x + c.$

11. $\int \frac{dx}{1+x^2} = arctgx + c.$

12. $\int f(ax+b)dx = \frac{1}{a}F(ax+b) + c.$

$$13.\int_a^b f(x)dx = \int_a^c f(x)dx + \int_c^b f(x)dx, \ (a < c < b).$$

$$14.\ \int_a^b f(x)dx = F(x)\Big|_a^b = F(b) - F(a).$$

$$15.\ \int_a^b f(x)dx = \int_\alpha^\beta f(\varphi(t))\varphi'(t)dt. \qquad 16.\ \int_a^b udv = uv\Big|_a^b - \int_a^b vdu.$$

$$17.\ V = \pi\int_a^b f^2(x)dx.$$

## NYUTON – LEYBNIS FORMULASI

$$\int_a^b f(x)dx = F(x)\Big|_a^b = F(b) - F(a).$$

**Misol 21.**

$$\int_{-1}^{2}(x-3)^2 dx = \int_{-1}^{2}(x^2 - 6x + 9)dx = \int_{-1}^{2} x^2 dx - \int_{-1}^{2} 6xdx + \int_{-1}^{2} 9dx =$$

$$= \int_{-1}^{2} x^2 dx - 6\int_{-1}^{2} x dx + 9\int_{-1}^{2} dx = \frac{x^{2+1}}{2+1}\Big|_{-1}^{2} - 6\frac{x^{1+1}}{1+1}\Big|_{-1}^{2} + 9x\Big|_{-1}^{2} =$$

$$= \frac{x^3}{3}\Big|_{-1}^{2} - 6\frac{x^2}{2}\Big|_{-1}^{2} + 9x\Big|_{-1}^{2} = \frac{1}{3} * x^3\Big|_{-1}^{2} - 3x^2\Big|_{-1}^{2} + 9x\Big|_{-1}^{2} =$$

$$= \frac{1}{3}[2^3 - (-1)^3] - 3[2^2 - (-1)^2] + 9[2 - (-1)] = \frac{1}{3}(8+1) - 3(4-1) + 9(2+1) =$$

$$= \frac{1}{3} * 9 - 3 * 3 + 9 * 3 = 3 - 9 + 27 = 21.$$

**Misol 22.**

$$\int_{\frac{\pi}{3}}^{\frac{\pi}{2}} \sin 6x dx = \frac{1}{6}(-\cos 6x)\Big|_{\frac{\pi}{3}}^{\frac{\pi}{2}} = -\frac{1}{6}\cos 6x\Big|_{\frac{\pi}{3}}^{\frac{\pi}{2}} = -\frac{1}{6}[\cos 6 * \frac{\pi}{2} - \cos 6 * \frac{\pi}{3}] =$$

$$= -\frac{1}{6}[\cos 3\pi - \cos 2\pi] = -\frac{1}{6}[-1-1] = \frac{1}{3}.$$

## O'ZGARIVCHILARNI ALMASHTIRISH

$$\int_{a}^{b} f(x)dx = \int_{\alpha}^{\beta} f(\varphi(t))\varphi'(t)dt$$

**Misol 23.**

$$\int_{0}^{1} \frac{x^2 dx}{(x+1)^2} = \left| \begin{array}{l} 1. O'zgaruvchi\ almashtiriladi: \\ x+1 = t \Leftrightarrow x = t-1 \Leftrightarrow \\ \Leftrightarrow dx = dt; \\ 2. Chegaralar\ almashtiriladi: \\ x = 0 \Rightarrow t = 1;\ x = 1 \Rightarrow t = 2. \end{array} \right| = \int_{1}^{2} \frac{(t-1)^2}{t^2} dt = \int_{1}^{2} \frac{t^2 - 2t + 1}{t^2} dt =$$

$$= \int_{1}^{2} (1 - \frac{2}{t} + \frac{1}{t^2}) dt = \int_{1}^{2} dt - 2\int_{1}^{2} \frac{dt}{t} + \int_{1}^{2} t^{-2} dt = t\Big|_{1}^{2} - 2\ln|t|\Big|_{1}^{2} + \frac{t^{-2+1}}{-2+1}\Big|_{1}^{2} = t\Big|_{1}^{2} - 2\ln|t|\Big|_{1}^{2} - \frac{1}{t}\Big|_{1}^{2} =$$

$$= 2 - 1 - 2[\ln|2| - \ln|1|] - [\frac{1}{2} - \frac{1}{1}] = 1 - 2[\ln 2 - 0] - \frac{1}{2} + 1 = 2 - \frac{1}{2} - 2\ln 2 = \frac{3}{2} - 2\ln 2.$$

**Misol 24.**

$$\int_0^{\frac{\pi}{2}} \cos^2 x \sin x dx = \left| \begin{array}{l} 1.\ t = \cos x; \\ dt = -\sin x dx; \\ \sin x dx = -dt; \\ 2. x = 0 \Rightarrow t = 1; \\ x = \frac{\pi}{2} \Rightarrow t = 0. \end{array} \right| = \int_1^0 t^2(-dt) = -\int_1^0 t^2 dt = \int_0^1 t^2 dt = \frac{t^3}{3}\Big|_0^1 = \frac{1}{3}t^3\Big|_0^1 =$$

$$= \frac{1}{3}[1^3 - 0^3] = \frac{1}{3}.$$

## BO‘LAKLAB INTEGRALLASH

$$\int_a^b udv = uv\Big|_a^b - \int_a^b vdu.$$

